



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2022 - yil 30 - sentabr

VII-43-126-5-74-K/22

Nurota tumani hokimligi

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini “openbudget.uz” rasmiy veb sayti orqali mavjud mahalliy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 20-sentyabrda KQ-406-IV-son “Tuman (shahar) byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi qarori tasdiqlandi.

Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida tuman mahalliy byudjeti parametrlari va qo‘shimcha manbalar hisobidan Nurota tumani “Fuqarolar tashabbusi jamag‘armasi”ga jami joriy yilning ikkinchi mavsumida 3 975,1 mln.so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Nizom talablariga muvofiq “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan g‘olib takliflarni aniqlash 3 ta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich - (qabul qilish bosqichi) joriy yilning 15-iyuldan 3-avgustga qadar davom etib, bunda fuqarolar tomonidan “Ochiq byudjet” axborot portaliga orqali mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida jami 248 ta takliflar bildirildi.

Ikkinchi bosqich - (ko‘rib chiqish bosqichi) 4-avgustdan 23-avgustgacha davom etib, bunda “Ochiq byudjet” axborot portaliga kiritilgan takliflar sohalarga ajratilib, tadbirlar summalariga aniqlik kiritildi va ishchi komissiyaga taqdim etildi. Fuqarolarimiz tomonidan bildirilgan 248 ta takliflar ishchi komissiya tomonidan belgilangan tartibda o‘rganilib, 161 ta taklif ovoz berish bosqichiga o‘tkazildi.

Uchinchi bosqich (ovoz berish bosqichi) 24-avgustdan 17-sentyabrga qadar davom etdi. Ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgan 161 ta takliflar uchun fuqarolar tomonidan “Ochiq byudjet” axborot portaliga jami 21474 ta ovozlar kelib tushdi.

Joriy yilning iyul-sentyabr oylarida “Ochiq byudjet” axborot portalida takliflarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ovoz berish jarayonlari yakunlangandan keyin fuqarolar tomonidan bildirilgan quyidagi takliflar tizim tomonidan avtomatlashtirilgan tarzda “Ochiq byudjet” axborot portalida g‘olib deb topildi .
Jumladan:

Nurota tuman 47-umumiy o‘rta ta‘lim maktabiga 6 xonali 60 o‘rinli bino qurish taklifi (taklif ID raqami 0770600214) (jami 3232 ta ovoz) xarajatlar uchun 1000,0 (bir milliard) mln. so‘m;

Nurota tuman Barkamol avlod bolalar markazining moddiy texnika bazasini mustahkamlash taklifi (o‘quvchi partasi 45 komplekt, sinf xonalari uchun doska 17 ta, 3 o‘rindiqli skameyka 14 ta, sinf xonalari uchun turli xil o‘lchamdagi shkaflar jami 38 ta, kompyuter uchun stol 10 ta, rahbar xonasi va boshqa xodimlar

uchun mebellar to'plami shuningdek, kompyuter 10 ta, monoblok 6 ta, interaktiv doska 2 ta, televizor 3 ta, tikuv mashinkasi 5 ta, overlak 2 ta, proyektor 1 ta, gaz plita 1 ta, muzlatgich 1 ta, fotoapparat 1 ta, konditsioner 4 ta, noutbuk 2 ta, printer 3/1 3 ta, rangli printer 1 ta, gilamlar, jalyuzi parda va boshqalar xarid qilish uchun) (taklif ID raqami 0770600071) (jami 2939 ta ovoz) xarajatlari uchun 550,0 (besh yuz ellik) mln. so'm;

Nurota tuman 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara bilan o'rash, eski binoni to'liq joriy ta'mirlash taklifi (taklif ID raqami 0770600045) (jami 2797 ta ovoz) xarajatlari uchun 670,0 (olti yuz yetmish) mln. so'm;

Nurota tuman 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara bilan o'rash, eski devorlarni buzish, eski ko'mirxonani buzib o'rniga yangisini qurish hamda maktab hududini obodonlashtirish taklifi (taklif ID raqami 0770600029) (jami 2521 ta ovoz) xarajatlari uchun 650,0 (olti yuz ellik) mln. so'm;

Nurota tuman 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara 400 metr bilan o'rash, ma'naviyat zalini yer qismini parket qilish, ko'mirxona qurish, hojatxona qurish, sport zalini tashqi va ichki qismini joriy ta'mirlash o'quvchilarga sifatli ta'lim berish maqsadida ushbu mablag'larni ajratish zarur taklifi (taklif ID raqami 0770400031) (jami 2424 ta ovoz) xarajatlari uchun 600,0 (olti yuz) mln. so'm;

“Ochiq byudjet” axborot portalida jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra eng ko'p ovoz to'plagan takliflarni saralab olish hamda jamg'arma mablag'larini moliyalashtirish va xulosalar berish bo'yicha ishchi komissiya yig'ilish bayoniga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “openbudget.uz” rasmiy veb saytidan olingan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra:

Nurota tuman 47-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 6 xonali 60 o'rinli bino qurish (taklif ID raqami 0770600214);

Nurota tuman Barkamol avlod bolalar markazining moddiy texnika bazasini mustahkamlash jumladan, o'quvchi partasi 45 komplekt, sinf xonalari uchun doska 17 ta, 3 o'rindiqli skameyka 14 ta, sinf xonalari uchun turli xil o'lchamdagi shkaflar jami 38 ta, kompyuter uchun stol 10 ta, raxbar xonasi va boshqa xodimlar uchun mebellar to'plami shuningdek, kompyuter 10 ta, monoblok 6 ta, interaktiv doska 2 ta, televizor 3 ta, tikuv mashinkasi 5 ta, overlak 2 ta, proyektor 1 ta, gaz plita 1 ta, muzlatgich 1 ta, fotoapparat 1 ta, konditsioner 4 ta, noutbuk 2 ta, printer 3/1 3 ta, rangli printer 1 ta, gilamlar, jalyuzi parda va boshqalar xarid qilish uchun (taklif ID raqami 0770600071);

Nurota tuman 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara bilan o'rash, eski binoni to'liq joriy ta'mirlash (taklif ID raqami 0770600045);

Nurota tuman 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara bilan o'rash, eski devorlarni buzish, eski ko'mirxonani buzib o'rniga yangisini qurish hamda maktab hududini obodonlashtirish (taklif ID raqami 0770600029);

Nurota tuman 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofini temir panjara 400 metr bilan o'rash, ma'naviyat zalini yer qismini parket qilish, ko'mirxona qurish, hojatxona qurish, sport zalini tashqi va ichki qismini joriy ta'mirlash o'quvchilarga sifatli ta'lim berish maqsadida ushbu mablag'lag'ni ajratish zarur (taklif ID raqami 0770400031) takliflari g'olib deb topilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2022-yilning ikkinchi yarim yilligida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxat 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (moderator)ga :

“Ochiq byudjet” axborot portaliga kelib tushgan, eng ko‘p ovoz to‘plagan hamda 3-bosqichda g‘olib deb topilgan takliflarni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” (keyingi o‘rinlarda “Jamg‘arma” deb yuritiladi) da mavjud mablag‘lardan kelib chiqib moliyalashtirishni amalga oshirsin.

“Tashabbusli byudjet” jarayonining keyingi bosqichlarida fuqarolarni keng jalb qilish maqsadida joylarda “Ovoz berish yarmarkalarini” tashkil etish, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish ishchi komissiyasi (O.Safarov):

Jamg‘armadan yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risida ma‘lumotni;

Jamg‘armadan yo‘naltirilgan mablag‘larning moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotni;

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar aks ettirilgan video-rolik va foto lavhalarni tuman hokimligining rasmiy veb saytida joylashtirib borsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (F.Ermakov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Fayziyev

Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining
2022 yil 30 sentabrda
VII-43-126-5-74-K/22-son qaroriga
1-ilova

Nurota tumani bo'yicha 2022-yilning ikkinchi yarmida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'mda)	Haqiqatda ajratilgan (ming so'mda)	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlarni soni				
Jami:				3 470,0	3 470,0	x	x
1	0770600214	Nurota tuman 47-maktabga 6 xonali 60 o'rinli bino qurish	3 232	1 000 000,0	1 000 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Navoiy viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK
2	0770600071	Nurota tuman Barkamol avlod bolalar markazining moddiy texnika bazasini mustahkamlash jumladan o'quvchi partasi 45 komplekt, sinf xonalari uchun doska 17 ta, 3 o'rindiqli skameyka 14 ta, sinf xonalari uchun turli xil o'lchamdagi shkaflar jami 38 ta, kompyuter uchun stol 10 ta, raxbar xonasi va boshqa xodimlar uchun mebellar to'plami shuningdek, kompyuter 10 ta, monoblok 6 ta, interaktiv doska 2 ta, televizor 3 ta, tikuv mashinkasi 5 ta, overlok 2 ta, proyektor 1 ta, gaz plita 1 ta, muzlatgich 1 ta, fotoapparat 1 ta, konditsioner 4 ta, noutbuk 2 ta, printer 3/1 3 ta, rangli printer 1 ta, gilamlar, jalyuzi parda va boshqalar xarid qilish uchun	2 939	550 000,0	550 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurota tumani xalq ta'limi bo'limi
3	0770600045	Nurota tuman 16-maktab atrofini temir panjara bilan o'rash, eski binoni to'liq joriy ta'mirlash	2 797	670 000,0	670 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Navoiy viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK
4	0770600029	Nurota tuman 48-umumta'lim maktabi atrofini temir panjara bilan o'rash, eski devorlarni buzish, eski ko'mirxonani buzib o'rniga yangisini qurish hamda maktab hududini obodonlashtirish	2 521	650 000,0	650 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Navoiy viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK
5	0770400031	Nurota tuman 15-maktabni atrofini temir panjara 400 metr bilan o'rash, ma'naviyat zalini yer qismini parket qilish, ko'mirxona qurish va hojatxona qurish sport zalini tashqi va ichki qismini joriy ta'mirlash o'quvchilarga sifatli ta'lim berish maqsadida ushbu mablag'ni ajratish zarur	2 424	600 000,0	600 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Navoiy viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK DUK
Тасдиқланмаган маблар*					505 000,1	x	x

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2022 yil 30 sentabrdagi
VII-43-126-5-74-K/22-son qaroriga
2-ilova

Nurota tuman bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID- 0770600071
loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)

Reestri

ming so'mda.

T/R	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	O'quvchi partasi komplekt	45	1 450	65 250
2	O'qituvchi uchun stol stul	9	1 500	13 500
3	Sinf xonalari uchun doska	17	1 150	19 550
4	Uch o'rindiqli skameyka	14	1 250	17 500
5	Shkaf knijniy	38	1 175	44 650
6	Kompyuter stoli stuli bilan	10	1 500	15 000
7	Xodimlar uchun mebellar to'plami	7	6 500	45 500
8	Raxbar xonasi uchun mebellar to'plami	1	15 000	15 000
9	Yumshok mebel	1	7 000	7 000
10	Tibbiyot shkafi	1	2 000	2 000
11	Oshxona shkafi	1	8 000	8 000
12	Kompyuter	10	5 000	50 000
13	Monoblok	6	8 000	48 000
14	Noutbuk	2	6 000	12 000
15	Printer 3*1	3	3 500	10 500
16	Rangli printer	1	3 500	3 500
17	Interaktiv doska	1	20 000	20 000
18	Interaktiv doska	1	35 000	35 000
19	Televizor	3	3 500	10 500
20	Tikuv mashinkasi	5	2 000	10 000
21	Overlok	2	5 000	10 000
22	Proyektor doskasi bilan	1	8 000	8 000
23	Muzlatgich	1	4 000	4 000
24	Gaz plita	1	3 000	3 000
25	Konditsioner	4	5 000	20 000
26	Fotoapparat	1	5 840	5 840
27	Gilam va darojkalar	228	120	27 360
28	Jalyuzi	129	150	19 350
Jami				550 000